
PAXTAKORLARGA SOVG'ALAR ULASHILDI

Qo'shtepa tumani ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari N.Otabekov va tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi, tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Mo'minova "Yusupov Umidjon", "Otabek Ravshan", "Tursunali obod yeri", "Bexizor fayzi", "Zamin ziyo", "Asiljon Rasuljon saxovati", "Mirishkor dehqon fayzi" fermer xo'jaliklarida bo'ldilar. Dalalarda paxtani oxirgi misqolini ham nest-nobud qilmay terib olayotgan tashabbuskor ayollar bilan suhbatlashib, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'limi tomonidan ajratilgan sovg'alarni topshirdilar.

2020-10-28 08:31:28